

Date: 3rd December-2025

“NUTQ MADANIYATI” MAVZUSINI INTERFAOL USULLARDA O‘QITISH

Vafoqulova Go‘zal Ochilovna

Annotatsiya: Maqolada “Nutqning kommunikativ sifatleri” mavzusini interfaol usullarda o‘qitish masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: kommunikativ sifat, uslub, interfaol ta’lim soflik, shakllantirish, zamonaviy texnologiyalar, grafik organayzer, nutq.

Ona tili millatning g‘ururi, iftixori hisoblanadi. Millatning madaniyati, ma’naviyati, ziyolilik darajasi ona tiliga munosabatda ham aniq ko‘rinadi. O‘zbek tili o‘zbek xalqining milliy boyligi sifatida qadim-qadimdan bugungacha ajdodlarimiz tomonidan e‘zozlanib, ardoqlanib, sayqallanib kelmoqda.

Tarixdan hozirgacha ona tiliga munosabat turlicha bo‘lib kelgan. Lekin eng muhim yutuq shundaki, o‘zbek tili ildizi chuqur eng go‘zal til sifatida boy leksikasi, ifoda-tasvir vositalari, rang-barang grammatik qurilishi bilan milliy adabiy meros sifatida keng imkoniyatlarini hamon saqlab kelmoqda. Uning betakror imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, rivojlantirish, boyitib borish uchun millatning har bir farzandi mas’ul va uning taraqqiyoti uchun hech kim befarq bo‘lmasligi lozim. O‘zbek tili o‘zbek xalqining milliy adabiy tili sifatida, uning obro‘-e’tiborini ko‘tarish, yuksak ma’naviyati va madaniyatini ko‘z-ko‘z qilish, yutuqlarimiz to‘g‘risida g‘ururlanib so‘zlash, o‘zligimizni namoyish etish uchun asosiy vosita ekan, doimo g‘amxo‘rlikni, e’tiborni, parvarishni talab qiladi. Adabiy tilni parvarish qilish, uning mavqeini tobora ko‘tarish esa uning qonun-qoidalariga, ya’ni adabiy til normasiga qat’iy rioya etish bilan belgilanadi. O‘zbek adabiy tiliga e’tibor uning davlat tili sifatidagi mavqeini ta’minlash, ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-madaniy, iqtisodiy turmushdagi rolini oshirish, ta’lim-tarbiya, ish yuritish, nashr ishlari, ommaviy axborot vositalarida yuqori madaniyat bilan foydalanish, so‘z boyligi va grammatik qurilishidagi o‘zgarishlarni xolisona baholab borish, zarur bo‘lganda, ma’lum choralarda ko‘rish, til rivoji uchun ongli aralashishni amalga oshirish kabilar bilan chambarchas bog‘liqdir.

Ta’lim jarayonini tashkil etish, ayniqsa, nutq madaniyatiga e’tibor sohasidagi tavsiyalar va uslubiy qo‘llanmalarga keyingi yillarda ehtiyoj yanada ortmoqda. Chunki ta’lim jarayoni uzluksiz va izchil bo‘lib, u har bir fan o‘qituvchisidan chuqur bilim, malaka, ko‘nikmalar va o‘zbek adabiy tili qonun-qoidalarini puxta bilish, amalda qo‘llay olishni ham talab etadi. Zamonaviy o‘qituvchidan mutaxassislik fanlari sirlari, kompyuterda ishlay olish mahoratini yaxshi bilishdan tashqari, yozma va o‘g‘zaki nutqi yuqori saviyada bo‘lish talab etiladi.

Mustaqillik davrida o‘zbek tilining mavqeini nihoyatda oshdi: ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy va boshqa barcha jabhalarda davlat tili amalda qo‘llanila boshlandi. O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov ham aynan shuni nazarda tutib, “Yuksak o‘ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida quyidagi dono fikrlarni keltirib o‘tgan: “Biz ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan bebaho boylikning



Date: 3rd December-2025

vorislari sifatida ona tilimizni asrab-avaylashimiz, uni boyitish, nufuzini yanada oshirish ustida doimiy ishlashimiz zarur.”⁷

Ta’lim tizimiga yangi va ilg’or pedagogik texnologiyalar joriy etila boshlandi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ham “Biz ta’lim va tarbiya tizimining barcha bo‘g‘inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o‘zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz”⁸, deya ta’kidlagan edilar. Bugungi kunda ta’limga xos innovatsion texnologiyalar o‘qitish samaradorligini belgilovchi vositaga aylandi.

Ta’lim jarayonini tashkil etish, ayniqsa, nutq madaniyatiga e’tibor sohasidagi tavsiyalar va uslubiy qo‘llanmalarga keyingi yillarda ehtiyoj yanada ortmoqda. Ayniqsa, bu sohada o‘qituvchilar, ziyolilarning o‘rni va ularning mas’uliyatni chuqur anglashi juda muhimdir. Shu jihatdan olib qaralganda, “Nutqning kommunikativ sifatlari” mavzusini o‘qitish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘rta Osiyo madaniyati tarixida nutq madaniyati o‘ziga xos mavqega egadir. “Nutq odobi”, “Muomala madaniyati” nomlari bilan yuritilib kelingan “nutq madaniyati” tushunchasi juda qadimdan olimlar, ziyolilarning diqqatini tortgan: Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Abu Abdulloh al-Xorazmiy, Ahmad Yugnakiy, So‘fi Olloyor, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy kabi ulug‘ siymolar nutq odobi masalalariga, umuman, nutqqa jiddiy e’tibor berish bilan birga, tilga, lug‘atga, grammatikaga va mantiqshunoslikka oid asarlar yozganlar.

Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarlarida ham nutq odobi borasida qadimiy turkiy xalqlar, jumladan, o‘zbeklar amal qilgan asosiy qonun-qoidalar, rasm-rusumlar haqidagi fikrlar yozilgan. Adib Ahmad Yugnakiy ham so‘zlaganda nutqni o‘ylab, shoshmasdan tuzishga, keraksiz, yaramas so‘zlarni ishlatmaslikka, mazmundor so‘zlashga chaqiradi. Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lug‘atayn”, “Mahbub ul-qulub”, “Nazm ul-javohir” kabi asarlari o‘zbek tilida nutq tuzishning go‘zal namunalari bo‘lishi bilan birga, uning mukammallashishiga ham katta hissa qo‘shdi.

Nutqiy ifoda aniq bo‘lishi uchun, avvalo, nutq tuzuvchining o‘zi aytmoqchi bo‘lgan fikrini tiniqlashtirib olishi kerak. Ko‘pincha tadqiqotchilar ulug‘ rus adibi L.N.Tolstoyning "So‘zdagi noaniqlik shubhasiz, fikr noaniqligining alomatidir" degan gapini iqtibos qiladilar.

Atoqli adib Fitrat o‘zining "Adabiyot qoidolari" asarida nutqning ("uslubning") umumiy zaruriy sifatlari ("hollari") tarzida to‘g‘rilik ("tuzuklik"), aniqlik ("ochiqlik"), soflik kabilarni tahlil etar ekan, xususan, soflikka shunday ta’rif beradi: "Uslubda soflik so‘z tuzishda, gap tuzishda yotchilik ko‘rsatmaslik, asarga yot so‘zlar yo eski onglashilmas so‘zlarni kirgizmaslik, yot tillarning nahviy qoidalariga qarab gap tuzmaslikdir”.

⁷Karimov I. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –Toshkent: Ma’naviyat, 2008. –B. 87.

⁸ Mirziyoyev Sh.M. - “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi”ma’ruzasi // Kuch adolatda gazetasi. №: 47. 2016 yil. 8 dekabr. 3-bet.




Date: 3rd December-2025

Nutqning boyligi ham zaruriy kommunikativ sifatlardan biridir. Ulug' Alisher Navoiy aytganidek, "Bir deganni ikki demak xush emas, So'z chu takror o'ldi, dilkash emas". Shuning uchun nutqning bu sifati rang-baranglik tarzida ham talqin etiladi, ya'ni boylig tegishli fikr ifodasi uchun qo'llangan til birliklarining xilma - xilligi, rang - barangligi bilan o'lganishiga urg'u beriladi.

Nutq to'g'ri bo'lishi uchun, asosan, ikki me'yorga - urg'u va grammatik me'yorga qat'iy amal qilish talab qilinadi. So'zlardagi urg'uning ko'chishi bilan ma'noning ham o'zgarib ketishi mumkinligini esdan chiqarmaslik lozim. Masalan, olma-olma, hozir - hozir, yangi-yangi, yigitcha-yigitcha, o'quvchimiz - o'quvchimiz so'zlarining ma'nosi ham urg'u yordamida oydinlashadi.

O'qituvchi ta'lim jarayonida interfaol ta'lim yordamida o'quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirishi, interfaol metodlarni qo'llash orqali o'qituvchi o'quvchilarning aniq ta'limiy maqsadga erishish yo'lida o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatlarini tashkil etish imkoniyatini qo'lga kiritadi.

1- **Topshiriq** O'quvchilarga nutqning kommunikativ sifatlari va bu sifatlarni ta'minlovchi vositalar xususida klaster tuzish topshiriladi. O'quvchilar taxminan quyidagi shaklda klaster tuzadilar:



2-Topshiriq. Muammoli savollar

1. Nutq madaniyatini egallashning qanday yo'llari bor?
2. Lahjaviy nutq ko'nikmasi shakllanib qotib qolganda qanday chora- tadbirlar qo'llaniladi?
3. Adabiy tildan foydalana olmaslik nutqiy madaniyatni egallashda qanday salbiy ta'sir ko'rsatadi?

O'quvchiga havola etiladigan muammoli savollar

4. Nutq madaniyatini egallashning qanday yo'llari bor?
5. Lahjaviy nutq ko'nikmasi shakllanib qotib qolganda qanday chora- tadbirlar qo'llaniladi?

Date: 3rd December-2025

6. Adabiy tildan foydalana olmaslik nutqiy madaniyatni egallashda qanday salbiy ta'sir ko'rsatadi?

PUNKTUATSION ME'YORLARNI SHAKLLANTIRISHGA DOIR TOPSHIRIQ. Zarur tinish belgilarini qo'ying.

1. Birdan tajriba ro'y-rost ishonarli natijalarga olib keldi // qizdirib sovutilgan mahsulot to'q qizil rangga kirdi.

2. Kanalning ikki qirg'og'ida g'uj- g'uj bo'lib turgan odamlar // erkaklar, ayollar va bolalar shod-hurram, suvning orqasidan, Bekbo'taning orqasidan chopib borardilar.

3. Bilim bilan kishining martabasi oshadi // ilmsizlik kishini tubanlashtiradi.

4. Qor yog'di // don yog'di.

5. Olamni quyosh yondiradi, insonni // ilm.


6. G'uncha guldan go'zalroq // chunki uning bag'rida ikki hayot // o'z hayoti va gul hayoti bor.

7. Tizgin tortilganmi // bo'sh qo'yilganmi // jadaliga olinganmi // ravon qo'yilganmi // xullas // shunga qarab hushtak chalishib hazil qilishganlari // sho'x-sho'x kulgilari // hammasi ishning bir me'yorda qizg'in ketayorganidan dalolat berardi.

8. Sirni eshitishga qobil bo'lgan ikki kishi bor // ularning birinchisi // vazir, boshqasi // kotib.

9. Odamning ko'ngliga tushadigan birgina kaliti bor // bu kalit // kamtarlik // oddiylikdir.

Muammo yuzasidan "Qanday" grafik organayzeri (3-ilova)




1-ilova: NUTQNING KOMMUNIKATIV SIFATLARINI ANIQLASHGA DOIR TOPSHIRIQ

Quyidagi gaplarda nutqning qaysi kommunikativ sifati buzilganini aniqlab, jadvalni to'ldiring va buning sababini izohlang.

1. Yaxshi aktrisa hisoblanmasam-da, o'zini sevganlardan biri sifatida ushbu oliyog'ni bitirdim.

Date: 3rd December-2025

2. Tarbiyachi bolalarga tushunarli bo'lishi uchun kitobni olib, xontaxta tortmasiga qo'yadi.
3. Avlodlar merosini o'rganamiz.
4. Buldozer, "Zil" avtomashinamiz miltiqning o'qiday uchadi.
5. Tilni yoray deydi-ya, tilni, - deb mulla uzumdan paqqos tushirdi.
6. Loqaydlik tufayli ko'rsak ham indamaymiz.
7. Muhammad Rahimxon qattiq kasalmish, ulli-ulli tabiblar ham kasalining davosini topolmayotganmish.
8. Kapalaklarni aytmasmi? Bir-birini quvlab guldin gulga qo'nayotgan kapalaklarga mahliyo bo'lmay ilojing yo'q. O'tkir kapalakni ushlamoqchi bo'ldi.



Date: 3rd December-2025



← **Комментарии** 

 **t_dildora_a** 
3 ч Ответить 

 **kuvanchbekmatiakubov** 116 йош узини
кимлигийам есидан чикип кетгандур
шунча йилда лекин койил жойи
жанната болсин 
3 ч Ответить 

 **kamolbekomonov** Uzimizda 116
yoshdan otgan odamlar ham bor faqat
ularni qayerdaligi nomalum
3 ч Ответить 

 **yoldashevr** 127 yoshlik onaxon
Fargonada
3 ч Ответить 

 **divakhabova** Titanikda qizi qariligin
oynagan hotinga ohwrkan
1 ч Ответить 

 **baxabduraximov** Realchilar xursand
bursa kerak shungaxam 
barselonadan ekanu 
7 мин Ответить 

Date: 3rd December-2025

T-1-ilova: Jadval asosida ijtimoiy tarmoqdan olingan yuqoridagi matnlardan birini nutqning kommunikativ talablari asosida tahlil qiling.

Nutqning kommunikativ sifatlari va yoshlar nutqi

SALBIY

Nutqning kommunikativ sifatlari buzilgan. Ko‘plab grafik, orfografik, punktuatsion va uslubiy xatolarga yo‘l qo‘yilgan. Shevaga xos so‘zlardan, varvarizmlardan foydalanilgan. Yozma nutq talablariga nisbatan o‘ta bepisandlik bilan munosabatda bo‘linga

IJOBIY

Nutqning aniqligi, to‘g‘riligi, sofligi, mantiqiyliqi, ifodaliligi, jo‘yaliligi kabi kommunikativ sifatlarga rioya qilingan

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Karimov I. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –Toshkent: Ma’naviyat, 2008. –B. 85-, 87-bet.
2. Mirziyoyev Sh.M. - “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi”ma’ruzasi // Kuch adolatda gazetasi. №: 47. 2016 yil. 8 dekabr. 3-bet.
3. Sayidahmedov N. Noan’anaviy dars. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Moliya, 2003.

